

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**

**“TASDIQLAYMAN”**



**O‘zbekiston Respublikasi  
Bank-moliya akademiyasi rektori  
E.A.Xoshimov**

**«28» 06 2024-yil**

**70410301-“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” MAGISTRATURA  
MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA MUTAXASSISLIK FANLARIDAN  
KIRISH SINOVLARI  
 (“SOLIQ SIYOSATI” VA “SOLIQ MENEJMENTI” FANLARI)**

**DASTURI**

**Toshkent – 2024**

*Fan bo'yicha magistraturaga kirish sinovlari dasturi Bank-moliya akademiyasi Kengashining 2024-yil « 28 » 06 dagi 10-sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.*

**“TAVSIYA ETILGAN”**  
“Moliya” kafedrasi majlisida  
muhokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri: J.Tursunov  
(kafedra majlisining “ 10 ” - sonli bayonnomasi  
“ 26 ” 06 2024-yil)

**Tuzuvchilar:**

Tursunov J.P.	O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Moliya” kafedrasi mudiri, i.f.d., dotsent
Usanov A.	O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Moliya” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**Taqrizchilar:**

Kuziyeva N.R.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor;
Elmirzayev S.E.	O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Investitsiyalar va kapital bozori” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor.

## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-yil 28-yanvardagi 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli, 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonining asosiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Magistraturaning “Soliqlar va soliqqa tortish” mutaxassisligiga kiruvchilar uchun mo‘ljallangan mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da keltirilgan soliq siyosatini liberallashtirish, shuningdek oliy ta’limning bakalavriat bosqichida o‘qitiladigan “Soliq nazariyasi”, “Soliq va soliqqa tortish” “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish”, “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish”, “Soliq ma’murchiligi va nazorati”, “Soliq statistikasi va prognozi” kabi mutaxassislik fanlarining o‘quv dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib 70410301 – “Soliqlar va soliqqa tortish” magistratura mutaxassisligiga o‘qishga qabul qilinayotgan tinglovchilar quyidagi bazaviy mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

# **“SOLIQ SIYOSATI” MUTAXASSISLIK FANI**

## **I. FANNING ASOSIY MAVZULARI**

### **1-MAVZU. SOLIQLAR VA SOLIQ MUNOSABATLARINING NAZARIY ASOSLARI**

Soliqlarning paydo bo‘lishi va ilk ko‘rinishlari. Soliq munosabatlarining vujudga kelishi, tarixi va rivojlanish bosqichlari. Soliqqa tortishning klassik va zamonaviy tamoyillari. Umumiy va xususiy soliq nazariyalari.

Soliq tushunchasi, uning iqtisodiy mazmun-mohiyati. Soliqqa tortishning obyektiv zarurligi. Soliqlarning tavsifi va umumiy belgilari. Soliqlarning funktsiyalari va bu boradagi yondashuvlar. Soliq, majburiy to‘lov va yig‘im tushunchalarining o‘zaro bir-biridan farqlanishi hamda o‘ziga xos xususiyatlari. Soliq elementlari va ularning mohiyati. Soliq obyekt. Soliqqa tortiladigan baza. Soliq me‘yorlari. Soliq stavkasi va uning turlari. Soliq imtiyozlari. Soliq imtiyozlarining turlari. Soliqni to‘lash muddatlari. Soliqlarni undirish usullari.

### **2-MAVZU. SOLIQ SIYOSATI VA SOLIQ TIZIMI SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI**

Soliq siyosati va uning asosiy tushunchalari. Soliq siyosatining elementlari. Soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillari. Soliq siyosatini amalga oshirishda hokimiyat organlarining roli. Soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilashda yashirin faoliyatning salbiy ta‘siri. Soliq siyosati kontseptsiyasi. Soliq siyosati strategiyasi va taktikasi. Erkin bozor munosabatlariga o‘tish davriga xos soliq siyosatining shakllanishi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki yillarida soliq siyosati. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi soliq siyosati. O‘zbekistonda soliq siyosati rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.

Soliq tizimining mohiyati va elementlari. Soliq tizimida soliqlarning guruhlanishi. Bevosita soliqlar tizimi. Bilvosita soliqlar tizimi. Mulkiy va resurs soliqlari. Umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlari. Mahalliy soliqlar va majburiy to‘lovlar. Soliq tizimining huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasida soliqlar va yig‘imlar tizimi. Soliq solish printsiplari. Soliq munosabatlarining sub'ektlari.

### **3-MAVZU. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG‘I**

Foyda solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar. Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlari. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining obyekt. Foyda solig‘ining bazasi. Faoliyat natijasida olinadigan jami daromad tarkibi. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar. Realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish. Jami daromadni aniqlashda boshqa (turli) daromadlar tarkibi. Foyda solig‘i bazasini aniqlashda xarajatlarni guruhlash. Moddiy xarajatlar. Mehnatga haq to‘lash xarajatlari. Hisobot

davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari. Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlar.

Foyda solig'i stavkalari. Foyda solig'ini hisoblab chiqarish va hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi. Foyda solig'ini to'lash tartibi va muddatlari. Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar. Kredit tashkilotlardan foyda solig'ini undirish tartibi. Sug'urta tashkilotlarining foydasiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalarining foydasiga soliq solish. Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga hamda oddiy shirkat ishtirokchilarining daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatadigan norezident yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan daromadlariga soliq solish. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olgan daromadlariga soliq solish.

#### **4-MAVZU. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I**

Qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishi va iqtisodiy mohiyati. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar va soliq solish obyekti. Qo'shilgan qiymat solig'i obyektini belgilashda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti. Soliq solinadigan va solinmaydigan oborotlarni belgilash. Soliq solinadigan bazani belgilash. O'zbekiston Respublikasi norezidentidan olinadigan ishlar, xizmatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

Qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyozlar. Soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti. Soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar. Soliqdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari. Soliqdan ozod qilinadigan import. Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot.

Soliqni hisobga olish va soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi. Soliq yuzasidan budget bilan o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Schyot-faktura rasmiylashtirish tartibi. O'zbekiston Respublikasiga keltirilayotgan import tovarlarga (ishlar, xizmatlar) QQSni qo'llash tartibi. Import tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan obyektlar.

#### **5-MAVZU. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN BOSHQA SOLIQLAR**

Yer solig'i to'lovchilari. Yer solig'i solinadigan obyektlar. Yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi. Yer solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar. Yer solig'i bo'yicha hisobotlarni taqdim etish muddati. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq. Soliqqa tortish obyekti. Soliq bazasi va uni aniqlash tartibi. Mol-mulk solig'i stavkalari va imtiyozlar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i. Soliq to'lovchilari va soliqqa tortish obyektlari. Soliq solinadigan baza, soliq davri va soliq stavkalari. Suv resurslaridan

foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilari va soliq obyektlari. Soliq solinadigan baza va uni belgilash tartibi. Soliq stavkalari va imtiyozlari.

Aktsiz solig'i to'lovchilar, soliq obyektlari. Soliq bazasi va stavkalari. Aktsiz solig'ini hisoblash tartibi. Aktsiz solig'ini to'lash va hisob-kitoblarni taqdim qilish tartibi. Import qilingan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i to'lovchilar, aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxati va soliqqa tortiladigan obyektни aniqlash tartibi.

Ijtimoiy soliq to'lovchilar, soliq obyektlari. Soliq bazasi va stavkalari. Ijtimoiy soliqni hisoblash tartibi. Ijtimoiy soliqni to'lash va hisob-kitoblarni taqdim qilish tartibi.

## **“SOLIQ MENEJMENTI” MUTAXASSISLIK FANI**

### **1-MAVZU. SOLIQ NAZORATI, UNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH**

Soliq nazoratining mohiyati, shakllari va turlari. Soliq to'lovchilarni hisobga olish. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish. Soliq tushumlarni hisobga olish. Soliq nazoratining shakllari. Kameral soliq tekshiruvi tushunchasi, maqsadi va mohiyati. Kameral soliq tekshiruvini amalga oshirish tartibi. Sayyor soliq tekshiruvi. Soliq auditi. Soliq auditini o'tkazish muddati. Soliq tekshiruvlarining va soliq nazorati boshqa choralarning huquqiy oqibatlari. Soliq monitoringi.

Transfert narxni belgilashda soliq nazorati. Bozor narxlari to'g'risidagi umumiy qoidalar. Nazorat qilinadigan bitimlar. Transfert narxni belgilashda soliq nazoratida foydalaniladigan usullar. Moliyaviy ko'rsatkichlar va rentabellik oralig'i. Taqqoslanadigan bozor narxlari usuli.

### **2-MAVZU. MAXSUS SOLIQ REJIMLARI**

Aylanmadan olinadigan soliq. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilari, soliqqa tortish obyektlari, stavkalari va soliq solinadigan baza. Tadbirkorlik subyektlarining aylanmadan olinadigan soliqni to'lashdagi belgilovchi mezon.

Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning alohida tartibi. Pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llash.

Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Advokatlar hay'atlariga, advokatlik firmalariga, advokatlik byurolariga va advokatlarga soliq solish. Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga soliq solish.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilari va soliq stavkalari. Yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining qat'iy belgilangan soliqda qolishini belgilovchi mezon. Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi. Faoliyat turiga qarab yakka tartibdagi tadbirkorlardan soliq undirish.

### **3-MAVZU. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR**

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar. Mehnat haqi shaklida olinadigan daromadlar. Daromad solig'i stavkalari. Soliq imtiyozlari. Soliq agentlarining daromad solig'ini ushlab qolish va budjetga o'tkazish bo'yicha majburiyatlari. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibi va ularni soliqqa tortish tartibi.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar tarkibi. Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya. Soliq chegirmalari va imtiyozlar. Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi. Rezidentlar tomonidan tashqarida to'langan soliqni hisobga olish. Soliq stavkalari va soliqni hisoblash tartibi. Deklaratsiya bo'yicha soliq to'lash tartibi.

Jismoniy shaxslar soliqqa tortiladigan mol-mulking tarkibi. Mol-mulk solig'ini hisoblash va undirish tartibi. Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq to'lash muddatlari. Yer solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar. Yer solig'ining obyektlari. Yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega jismoniy shaxslar. Imtiyoz xuquqining tadbiq etilishi va bekor qilinishi tartibi. Yer solig'ini hisoblash va undirish muddatlari.

### **4-MAVZU. DAVLAT SOLIQ MA'MURCHILIGI, UNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI**

Soliq ma'murchiligi tushunchasi, mohiyati va xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligi tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Soliq ma'murchiligini olib borishning tashkiliy va huquqiy asoslari. Soliq munosabatlarini boshqarish tizimida soliq ma'murchiligi subyektlari va ularning funktsiyalari. Davlat soliq ma'murchiligining elementlari.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq munosabatlariga oid javobgarligi. Soliq majburiyati va uning yuzaga kelishi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq to'lovchi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun belgilangan huquqiy munosabatlar va kodeks bilan tartibga solinadigan soliqqa tortish munosabatlari. Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari.

### **5-MAVZU. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLAR BO'YICHA MA'MURIY AMALIYOT YURITISH TARTIBI**

Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi. Soliqqa oid huquqbuzarlik turlari. Soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik. Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortishning umumiy shartlari. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish tartibi. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi haqidagi hujjatlarni rasmiylashtirish. Soliq tekshiruv materiallarining davlat soliq xizmati organi tomonidan ko'rib chiqish tartibi va muddatlari.

Soliq tekshiruv materiallari ko'rib chiqish bayonnomasi. Soliq to'lovchining soliq tekshiruv dalolatnomasi bo'yicha o'zining yozma tushuntirishlari yoki e'tirozlari mavjud bo'lgan holatda soliq tekshiruv materiallarini ko'rib chiqish

tartibi. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat (protest)ni ko'rib chiqish.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi haqidagi ishlar yuzasidan ish yuritish. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi yuzasidan ish yuritishni nazorat qilish. Ma'muriy amaliyotni yuritishda qo'llaniladigan dasturiy mahsullar.

## **6-MAVZU. SOLIQ STATISTIKASI VA PROGNOZI**

Statistika tushunchasi va soliq statistikasi ko'rsatkichlari ta'rifi. Soliq statistikasining asosiy printsiplari. Soliq statistikasi ma'lumotlarini tahlil qilishda tezkor ma'lumotlarni yig'ish va soliq statistikasini tashkil etilishi. Soliq statistikasida mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar.

Soliq stavkalarini qo'llash tartibi va ularning soliq tushumlarini prognozlashtirishdagi ahamiyati. O'zbekistonda davlat budjetining daromad qismini prognozlashtirishning mohiyati. Soliq turlari bo'yicha tushumlarni prognozlashtirishni tashkil qilish. Ma'lumotlarni yig'ish tartibi. Davlat budjeti daromadlarini prognoz qilishning usullari.

Soliq turlari bo'yicha tushumlarni prognozlashtirishni tashkil qilishda: budjet daromadlarini tarkibi. Hududni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish asosiy yo'nalishining tahlili; soliq to'lovchilar va ular to'lagan soliqlar bo'yicha hisob axborotlari; amaldagi soliq stavkalari; soliq imtiyozlari; kutilayotgan inflyatsiya ko'rsatkichlari; statistik hisobotlar tahlili va ma'lumotlarni yig'ish tartibi.

## **II. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Vahobov.A.V, Jo'rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.
2. Xasanov B.A. va b. Moliya va soliqlar. Darslik. T.: Lesson Press. 2023.-564 b.
3. A.Jo'rayev va b. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-350 b.
4. A.Jo'rayev va b. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-350 b.
5. И.А.Майбуров и др. Налоги и налогообложение. Учебник. 4-издание. М.:ИНФРА-М. 2017.-555 с.
6. Налоги и налогообложение. Под редакцией проф. М.В.Романовского. Учебник. 3-е. издание. М.: Юрайт. 2014,-441 с.
7. Niyazmetov I.M. O'zbekiston soliq tizimi: muammolar va takomillashtirish yo'llari. Monografiya. – T.: Moliya, 2017. – 195 b.
8. Malikov.T.S. Budget soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot-



Moliya. 2019.-652 b.

9. А.С.Жураев, Л.И. Гончаренко, У.А.Бердиева. Налоговое администрирование. Учебное пособие. Т.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-649 с.

10. Теория и история налогообложение. Под редакцией проф. Д.Г.Черника. Учебник. 3-е. издание. М.: Юрайт. 2014.-364 с.

11. Jo'rayev A.S., Safarov G'.A., Meyliyev O.R. Soliq nazariyasi. O`quv qo`llanma. Т.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-358 b.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri).  
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3802-sonli qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 fevraldagi "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" F-5214-sonli farmoyishi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori.

#### **Axborot manbaalari:**

<http://www.soliq.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy sayti)

<http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

<http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti).



